



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QASQARTIRISH

Bobomurodov Qayimjon Homidovich,

Qulliyev Oxunjon Anvar og'li

*Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchilari*

Annotasiya: *Ayni paytda O'zbekiston aholisining aksariyati kambag'allik chegarasiga yaqin darajada kun kechirayotgan bo'lib, shuning yarmidan ko'prog'i jamg'armalarga ega emas, 40 foizi esa 100 ming so'm miqdordagi kutilmagan xarajatlarni ko'tara olmaydi.*

Kalit so'zlar: *aholi, kambag'allik, bandlik, pandemiya, tadbirkorlik, kam ta'minlangan, aholi ulushi, xarajat.*

O'zbekistonda 2022 yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani aytiladi. Bu haqda prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mavzusidagi videoselektor yig'ilishida ma'lum qilindi.

Keltirilishicha, bunda hokim yordamchilari 1 mln nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgan, daromadli ish bilan band qilgan. Shu davrda 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi, 10 mingta korxonalar faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxonalar quvvati tiklandi, deyiladi xabarda.

Prezidentimiz bu ishlarni 2023 yilda davom ettirish, bandlikni ta'minlash bo'yicha barcha tarmoq va hudud rahbarlariga aniq topshiriqlar berdi. Jumladan, 2023 yilda 5 mln nafar aholi bandligini ta'minlash, 2 millionta doimiy ish o'rnini yaratish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekistonda kambag'allik darajasi 14 foizga tushdi. 2022 yil respublikada kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi.

Ayni paytda O'zbekiston aholisining aksariyati kambag'allik chegarasiga yaqin darajada kun kechirayotgan bo'lib, shuning yarmidan ko'prog'i jamg'armalarga ega emas, 40 foizi esa 100 ming so'm miqdordagi kutilmagan xarajatlarni ko'tara olmaydi.

Jahon banki pandemiya boshlangandan so'ng O'zbekistondagi kambag'allik darajasi pandemiyadan avvalgi 7,4 foizdan 8,7-10 foizga ko'tarilganini taxmin qilmoqda. Bu esa kambag'allar soni mamlakatda 0,45-0,88 millionga ko'payganini anglatadi.

Ma'lum qilinishicha, O'zbekistonda pandemiya tufayli kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilgari qolgan va hozir ortga qarab ketmoqda. Mamlakat aholisining aksariyati ayni paytda kambag'allik chegarasiga yaqin darajada kun kechirayotgan bo'lib, chegaradan tushib ketishining ehtimoli yuqori. Tashkilot mazkur aholining yarmidan ko'prog'i jamg'armalarga ega emasligini, 40 foizi esa hozirgi kunda 100 ming



so'm (9,8 dollar) miqdordagi kutilmagan xarajatlarni ko'tara olmasligini ma'lum qilgan.

Jahon banki tomonidan qabul qilingan chegara (daromad darajasi o'rtacha kesimning quyi qismida bo'lgan davlatlar uchun xarid qobiliyati pariteti jon boshiga bir kunda 3,2 AQSh dollarini tashkil etadi) asosida baholanganda, 2018 yilda O'zbekistonda kambag'allik darajasi 9,5 foizni tashkil etgan. Bu hisob-kitoblar "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" loyihasi doirasida olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zini "kambag'al", deb hisoblaydigan uy xo'jaliklarining o'z-o'zini sub'yektiv tasniflash ko'rsatkichlariga mos keladi.

"Davomli ijobiy o'zgarishlarga qaramay, kambag'allik ko'rsatkichlarida geografik nuqtayi nazardan keskin tafovutlar kuzatilgan. Kambag'al aholi vakillarining 79 foizga yaqini qishloq joylarda yashaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida kambag'allik darajasi deyarli bir xil bo'lsa-da, Samarqand viloyati aholisi soni nisbatan ko'pligi sababli 2018 yilda jami kambag'al aholi vakillarining 20 foizi u yerda istiqomat qilgan", - deyiladi manbada.

Hukumatning kam ta'minlangan aholi ulushi to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, kambag'allik darajasi 2000 yildagi qariyb 28 foizdan 2019 yilga kelib, 11 foizgacha tushgan, bunda kambag'allikning qisqarish darajasi yildan yilga pasaygan.

Avvalroq bosh vazir o'rinbosari - iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri Jamshid Qo'chqorov pandemiya davrida mamlakatda kambag'allik darajasi ortmagani, bu davr mobaynida aholining birorta qatlami qashshoqlikka tushmaganini aytgandi.

Shuningdek, bandlik va mehnat munosabatlari vaziri o'rinbosari Erkin Muhiddinov 2020 yil yarmiga kelib, ishsizlik darajasi 13 foizdan oshib ketganini ma'lum qilgandi. Sentyabr oxirida esa bu ko'rsatkich 11,1 foiz, 2021 yil boshida 10 foiz atrofida deyilgan.

O'zbekistonda 2030 yilga borib kambag'allik darajasini ikki barobarga qisqartirish bo'yicha prezident qarori loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

im kambag'al yoki kambag'al emasligini aniqlashda odamlarning yashash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil - daromad va xarajatlar ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda kambag'allik ko'rsatkichlari qanday va uni qisqartirish bo'yicha nima ishlar qilinmoqda?

O'zbekiston aholisining qancha qismi kambag'al?

Respublikada kambag'al aholi qatlami mavjud bo'lsa-da, uzoq vaqt bu mavzu tilga olinmay kelgani sir emas. Bundan ikki yil ilgari ham faqat kam ta'minlanganlar haqida gapirilardi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil fevraldagi parlamentga murojaatida ilk bor O'zbekiston aholisining kambag'al qatlami haqida so'zladi. Respublika aholisining 12-15 foizi kambag'al ekani, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini ta'kidladi.

Pandemiya va uning salbiy oqibatlari mamlakatda kambag'allik darajasi yanada ortishiga olib keldi. Ayni paytda bu bo'yicha yangi hisob-kitoblar ma'lum qilinganicha yo'q.



ADABIYOTLAR:

1. Qulliyev O. ISHLAB CHIQRARISH IMKONIYATLARI CHIZIG'I //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
2. Qulliyev O., Abduqahhorov B. ECONOMIC GLOBALIZATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
3. Qulliyev O. PUL MABLAG'LARI HISOB: IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA ULARNING ASOSIY VAZIFALARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
4. Qulliyev O. ЛИНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРОИЗВОДСТВА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
5. Qulliyev O. Covid-19 и экономика Узбекистана //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
6. Qulliyev O. ПРИНЦИПЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МНОГОСТОРОННИХ БАНКОВ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
7. Qulliyev O., Jiyanov L. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫЙ ПОДХОД К СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
8. Anvarovich Q. A. et al. THE ECONOMIC MODERNIZATION OF UZBEKISTAN //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 332-339.
9. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li. Covid-19 va O'zbekiston iqtisodiyoti JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS)
10. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR Volume: 01 Issue: 05| 2021
11. Rasulovich K. A., Ulugbekovich K. A. SECTION: ECONOMICS //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2020. – С. 25.
12. Rasulovich K. A. THE ROLE OF AGRO-TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-ECONOMIC INFRASTRUCTURE IN RURAL AREAS //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 3 (62). – С. 13-14.
13. Khodjayev A. R. et al. EFFICIENCY OF USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN SMALL BUSINESS //World science: problems and innovations. – 2021. – С. 130-132.
14. Xodjayev A. et al. THE ROLE OF SMM MARKETING IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT DURING A PANDEMIC //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
15. Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li CHOVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA AQLLI FERMADA ZAMONAVIY SENSORLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti konferensiyasi 2021-y. 186-192-betlar.
16. Anvar o'g'li, Qulliyev Oxunjon. "Functioning Principles and Main Activities of Multilateral Development Banks." International Journal of Culture and Modernity 15 (2022): 83-86.